

**BO'LAJAK LOGOPED O'QITUVCHILARNING IJODIY
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Kurbanbayeva Malika Urazbayevna

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushu maqolada bo'lajak logoped o'qituvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, logopediya sohasida ta'lim olayotgan talabalar kasbiy faoliyat jarayonida innovatsion yondashuvlar, kreativ fikrlash, noan'anaviy muammo yechimlarini topish qobiliyatiga ega bo'lishlari, ijodiy qobiliyatning nazariy asoslari, logoped o'qituvchi faoliyatida uning ahamiyati, ijodiy tafakkurni shakllantirishning psixologik mexanizmlari, shuningdek, amaliy tavsiyalar berilgan hamda sohani takomillashtirish va isloh qilishni talab qiladigan kasbiy, shaxsiy sifatlarini aniqlashda malakaviy amaliyotning nazariy va amaliy tomonlari, kasbiy faoliyatni sezilarli o'zgartiruvchi va yangi mazmun bilan to'ldiruvchi talablarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik tomonlari haqida fikr mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: logoped o'qituvchi, ijodkorlik, qobilyat, intellekt, bo'lajak o'qituvchi, kreativ fikrlash, shaxsiy sifat, metodika, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития творческих способностей будущих преподавателей логопедии, способности студентов, обучающихся по специальности «логопедия», находить новаторские подходы, креативное мышление и нестандартные решения проблем в процессе профессиональной деятельности, теоретические основы творческих способностей, их значение в работе преподавателя логопедии, психологические механизмы формирования



креативного мышления, а также практические рекомендации и теоретико-практические аспекты профессиональной практики в выявлении профессионально-личностных качеств, требующих совершенствования и реформирования профессии, педагогические и психологические аспекты развития требований, существенно изменяющих профессиональную деятельность и наполняющих ее новым содержанием.

Ключевые слова: преподаватель логопедии, креативность, способности, интеллект, будущий учитель, творческое мышление, личные качества, методология, инновации.

Annotation: This article discusses the development of creative abilities of future speech therapist teachers, the ability of students studying in the field of speech therapy to find innovative approaches, creative thinking, and unconventional problem solutions in the process of professional activity, the theoretical foundations of creative abilities, its importance in the work of a speech therapist teacher, psychological mechanisms for the formation of creative thinking, as well as practical recommendations and theoretical and practical aspects of professional practice in identifying professional and personal qualities that require improvement and reform of the field, pedagogical and psychological aspects of the development of requirements that significantly change professional activity and fill it with new content.

Key words: speech therapist teacher, creativity, ability, intellect, future teacher, creative thinking, personal qualities, methodology, innovation.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ta'lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida bo'lajak logoped o'qituvchilardan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki yuqori ijodiy qobiliyat, moslashuvchan fikrlash va innovatsion yondashuvlar talab etiladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayoni doimiy

ravishda yangicha metodlar, no'anaviy yechimlar va individual yondashuvni taqozo etadi.

Logopediya sohasi inson nutqidagi kamchiliklarni barataraf etishda muhim yo'nalish bo'lib, logoped o'qituvchining kasbiy mahorati yuqori darajada ijodkorlikni talab etadi. Chunki har bir bola yoki katta yoshdagi shaxsning nutq buzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Ularni to'g'ri tashxislash, individual dastur tuzish, samarali mashg'ulotlar olib borish logopedning kreativ yondashuvini talab qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak logoped o'qituvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat bilimni singdirish, balki mustaqil fikrlashni, noodatiy yechimlarni topishni, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

IJODIY QOBILIYAT TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Psixologiyada ijodiy qobiliyat shaxsning yangi, oldin ishlatilmagan g'oyalarini yaratish, muammolarni noodatiy yo'llar bilan hal etish, mavjud bilim va tajribani yangi vaziyatlarga moslashtira olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ijodiy qobiliyat mustaqil tafakkur, intellektual faollik, motivatsiya va emotsional barqarorlik kabi komponentlar bilan uzviy bog'likdir.

Logoped o'qituvchi faoliyatida ijodiy qobiliyat nutqiy nuqsonlarni aniqlash, korreksion ishlarni rejalashtirish va individual dasturlar ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir bola individual psixofiziologik xususiyatlarga ega bo'lib, ularga bir xil metodni qo'llash kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Ijodiy qobiliyat - shaxsning yangi g'oyalarni yaratish, muammolarga noodatiy va samarali yechim topish, mavjud bilim va tajribalar asosida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Psixologiyada ijodiy qobiliyat tafakkurning oliy darajasi sifatida talqin etiladi.



Amerikalik psixolog J.Gilford ijodiy qobiliyatni shaxs intellektual faoliyatining mustaqil turi sifatida ko'rib, uni divergent fikrlash bilan bog'laydi. Uning fikricha, ijodkorlik - bu bir muammoning bir nechta yechimini topa olish qobiliyatidir.

Rus psixologi L.S.Vygotskiy ijodiy qobiliyatni ijtimoiy tajriba va tasavvur bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydi. Unga ko'ra, insonning har qanday ijodiy faoliyati oldingi tajribalarni qayta ishlash va ularni yangicha kombinatsiyalash natijasida yuzaga keladi.

Ijodiy qobiliyatning tarkibiy qismlari

Olimlar tadqiqotlariga ko'ra, ijodiy qobiliyat bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topadi:

Tasavvur - yangi obrazlar, g'oyalar va modellar yaratish qobiliyati. Vygotskiy tasavvurni ijodiy faoliyatning asosi deb hisoblab, u orqali inson real hayotdan tashqariga chiqa olishini ta'kidlaydi.¹

Muammoli vaziyatni anglash - muammoning tub mohiyatini his qilish va uni aniq belgilay olish qobiliyatidir. Psixolog M.Wertheimer fikricha, muammoni to'g'ri ko'ra olish ijodiy yechimning yarmidir.

Divergent fikrlash - bir masalaga turli yo'nalishlarda yondashish va ko'plab g'oyalar ilgari surish qobiliyati. J.Gilford divergent fikrlashni ijodiy qobiliyatning asosiy ko'rsatkichi sifatida ta'riflaydi.²

Moslashuvchanlik - vaziyat o'zgarishiga qarab yangi harakat usullarini taklif qilish va fikrni tezda qayta yo'naltira olish qobiliyati. Bu xususiyat ijodiy shaxsning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Original fikrlash - noodatiy, betakror va kam uchraydigan g'oyalarni ilgari surish qobiliyatidir. E Torrens o'zining ijodkorlik testlarida aynan original javoblarni ijodiy qobiliyatning asosiy mezonini sifatida belgilagan.

Ijodiy jarayon bosqichlari

¹ Vygotskiy L.S. Bolalar ijodiyoti va tasavvur psixologiyasi. - Moskva: Pedagogika, 1997.

² Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. - New York: McGraw-Hill, 1967.



Ingliz olimi G. Wallas ijodiy jarayonni to‘rt bosqichga ajratadi:

1. Tayyorgarlik
2. Inkubatsiya (ichki pishib yetilish)
3. Ilhom (insayt)
4. Tekshirish va amalga oshirish

Bu model ijodiy faoliyatning psixologik mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

BO‘LAJAK LOGOPED O‘QITUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Psixologiyada ijodiy qobiliyat shaxsning yangi, original g‘oyalarni yaratish, muammolarni noodatiy yo‘l bilan hal etish hamda mavjud bilim va tajribani yangi vaziyatlarga moslashtira olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ijodiy qobiliyat tafakkur mustaqilligi, fantaziya, intellektual faollik, motivatsiya va emotsional barqarorlik kabi komponentlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Logoped o‘qituvchi faoliyatida ijodiy qobiliyat nutqiy nuqsonlarni aniqlash, korreksion ishlarni rejalashtirish va individual dasturlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir bola individual psixofiziologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga bir xil metodni qo‘llash kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Ijodiy qobiliyat muammosini ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiq etgan. Jumladan, J. Gilford ijodiy tafakkurni divergent tafakkur bilan bog‘lab, uning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida moslashuvchanlik, ravonlik, originallik va aniqlikni ajratib ko‘rsatadi. E. Torrens esa ijodkorlikni muammoni sezish, taxmin ilgari surish va uni tekshirish qobiliyati sifatida izohlaydi.

L.S.Vigotskiy ijodiy faoliyatni shaxsning ijtimoiy tajribani qayta ishlashi natijasida yuzaga keladigan psixik jarayon deb hisoblaydi. Uning



fikricha, fantaziya va ijod tafakkur bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonida rivojlantiriladi.

A.N. Leontev ijodiy qobiliyatni shaxs faoliyatining motivatsion sohasi bilan bog‘lab, ichki ehtiyoj va qiziqishlar ijodkorlikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanligini ta’kidlaydi.

Logoped o‘qituvchi faoliyati murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, unda faqat tayyor metodikalarga tayanish yetarli emas. Har bir bola o‘ziga xos psixofiziologik xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli, logopeddan ijodiy yondashuv, vaziyatni tez tahlil qilish va moslashuvchan qarorlar qabul qilish talab etiladi.

Ijodiy qobiliyat logoped o‘qituvchiga:

- nutqiy nuqsonlarni aniq tashxislash;
- individual korreksion dasturlar tuzish;
- yangi metod va mashqlar ishlab chiqish;
- bolalarda nutqiy faollik va motivatsiyani oshirish imkonini beradi.

Bo‘lajak logoped o‘qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish quyidagi asosiy psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi:

1. Motivatsion mexanizm - kasbiy faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyoj va qiziqish ijodiy faollikni rag‘batlantiradi.
2. Kognitiv mexanizm - tafakkur mustaqilligi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati.
3. Emotsional-irodaviy mexanizm - o‘ziga ishonch, stressga chidamlilik va ijobiy emotsional holat ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.
4. Refleksiv mexanizm - o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va o‘zini rivojlantirishga intilish.

Mazkur mexanizmlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda bo‘lajak logoped o‘qituvchining ijodiy salohiyatini shakllantiradi.

LOGOPED O‘QITUVCHILARDA IJODIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLAR



Interfaol metodlar bo'lajak logoped o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Interfaol ta'lim texnologiyalari orqali talaba nutqiy jarayonlarni chuqur anglash, muloqot madaniyatini rivojlantirish, kreativ fikrlashni faollashtirish imkoniga ega bo'ladi.

“Aqliy hujum” usuli. Aqliy hujum ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi samarali metodlardan biridir. Ushbu metod mashg'ulot jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, ularni hal qilish uchun ko'plab yechim variantlarini taklif qilish imkonini beradi. Talabalar nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari yoki korreksiya bosqichlarini muhokama qilishda o'z fikrlarini erkin bayon qilishadi.

Klaster tuzish usuli. Klaster metodida talaba markaziy mavzu atrofida o'z assotsiatsiyalarini keltirib chiqaradi. Masalan, “dizartriya” yoki “dislaliya” kabi mavzular yuzasidan klaster yaratish orqali talaba muammoni chuqur tahlil qiladi.

Rolli o'yinlar. Rolli o'yinlar logopediya ta'limida eng samarali kreativ metodlardan biridir. Talabalar “logoped”, “ota-ona” yoki “nutq buzilishiga ega bola” rollarida ishtirok etadi. Bu esa kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, shuningdek, logopedik jarayonning real modellashirilishiga imkon beradi.

BO'LAJAK YOSH LOGOPED O'QITUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Bo'lajak yosh logoped o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ko'maklashuvchi sharoitlarni yaratish ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xorijlik tadqiqotchilar ham bo'lajak yosh logoped o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berishini ilmiy tadqiq qilganlar. N.G.Alekseev va E.G.Yudin kabi olimlar “eng qobiliyatli, mustaqil ijodiy faoliyatga moyilliklari mavjud” talabalarni aniqlashning, “ularning o'zlarini



eng yuqori darajada namoyon qila olishlari uchun sharoit yaratish va bunga turtki berish” zarurligi haqida fikr yuritadilar.³

S.I.Arxangelskiy, D.N.Bogoyavlenskiy, N.A.Menchinskaya kabi olimlar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ilmiy-tadqiqot yo‘nalishini ko‘lamini oshirishni taklif qiladilar.⁴ Ish beruvchining bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga qo‘yadigan talablarini o‘rgangan olima G.I.Baturina talablar orasida birinchi o‘rinni ijodiy salohiyat, ishga nisbatan moslashuvchan yondashuv, o‘rganishga bo‘lgan layoqat (83 foiz) egallaydi, deb qayd etadi.⁵ V.A.Slastyonin uchun bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatida individual-ijodiy yondashuv pedagogning o‘zini ijodiy shaxs sifatida anglashi, uni takomillashtirish va isloh qilishni talab qiladigan kasbiy shaxsiy sifatlarini aniqlashni nazarda tutadi. O‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj novator o‘qituvchining asosiy sifati sanaladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalaridagi kasbga tayyorlash tizimi o‘zini tarbiyalash va ijod qilishga qodir bo‘lajak novator-o‘qituvchini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Kasbiy ta’limning bir qismi sifatidagi malakaviy amaliyot esa uning salohiyatini ochib berishi lozim.⁶

Ilmiy izlanishlar davomidagi kuzatishlarimiz bo‘lajak yosh logoped pedagog mutaxassislarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashi, o‘z faoliyatlarini qayta qurishi, o‘zaro ta’sir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari va ko‘p ikkilanishlarga borishini ko‘rsatdi. Ular zaruriy adabiyotlar, o‘z bilimlari va malakasini oshirish shakllarini tanlash, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini anglash, o‘zlarini namoyon qilish, pedagogik g‘oyalarini amaliyotga tatbiq qilish, qanday hollarda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi qaysi sub’ektlarga murojaat qilishlarini aniqlashlarida amaliy

³ Алексеев Н.Г., Юдин Э.Г. О психологических методах изучения творчества. - М., Наука, 1971,- с. 22

⁴ Богоявленский Д.Н., Менчинская Н.А. Психология усвоения знаний в школе. М.: 1959.-347 с.

⁵ Батурина Г.И. Введение в педагогическую профессию: Учебное пособие/ Г.Ф.Кузина. -2-е изд.,стер. - М.; Академия, 1999 - с. 176

⁶ Сластенин В.А. Формирование личности учителя советской школы в процессе его профессиональной подготовки. -М.: Просвещение, 1976.-с. 160, 36-54

yordamga muhtojlik sezadilar. Shu sababdan bo‘lajak pedagoglarning bilimlarni oshirish, kasbiy ehtiyojlarini qondirish, muayyan muammoli pedagogik vaziyatlarda maqbul yechimlarni topishda ichki imkoniyatlardan foydalanish, o‘zini-o‘zi motivlashtirish va rag‘batlantirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish strategiyalarini belgilash, ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion jarayonlarga doir ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, muxtasar aytganda, uzluksiz pedagogik va kasbiy rivojlanishlariga ilmiy-metodik hamrohlik qilishga qulay sharoitlarni vujudga keltirishga asosiy e’tiborni qaratishi zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak logoped o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijodiy tafakkur, innovatsion yondashuv va noan’anaviy muammo yechimlarini topish qobiliyati logoped o‘qituvchining kasbiy samaradorligini oshiradi. Olimlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ijodiy qobiliyat tug‘ma imkoniyatlar bilan bir qatorda ta’lim, muhit va faoliyat jarayonida rivojlanadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metod va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonni psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish va pedagogik shart-sharoitlar yaratish orqali logopediya sohasini takomillashtirish va isloh qilishga xizmat qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni davrni o‘zi taqozo etad.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Bolalar ijodiyoti va tasavvur psixologiyasi. - Moskva: Pedagogika, 1997.
2. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. - New York: McGraw-Hill, 1967.





3. Torrance E.P. Creativity in the Classroom. - Washington: National Education Association, 1974.
4. Bogoyavlenskaya D.B. Intellekтуал faollik va ijodkorlik. - Moskva: Pedagogika, 1983.
5. Алексеев Н.Г., Юдин Э.Г. О психологических методах изучения творчества.- М., Наука, 1971,- с. 22.
6. Богоявленский Д.Н., Менчинская Н.А. Психология усвоения знаний в школе. М.: 1959.-347 с.
7. Батурина Г.И. Введение в педагогическую профессию: Учебное пособие/ Г.Ф.Кузина.-2-е изд.,стер. -М.; Академия, 1999 - с. 176
8. Сластенин В.А. Формирование личности учителя советской школы в процессе его профессиональной подготовки. -М.: Просвещение, 1976.-с. 160, 36-54

